

PEDAGOGLARNING MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORADIGAN FAOLIYATINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Dodoyev Baqo Boturovich

Navoiy viloyati Nurota tumani 49-maktabi psixologi

Annotatsiya: Maktab yoshidagi bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish maktabgacha tarbiya muassasalaridagi ijtimoiy pedagogik ishdan tubdan farq qiladi. Bu faoliyat o'quvchilarning doimiy kamol topishlari va ta'lif olishlariga bog'liq. Maktabdagi ijtimoiy pedagogik faoliyatning barcha jihatlarini bir bobda ochib berishning iloji yo'q, shuning uchun biz eng muhim vaziyatlarini ochib berishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: faoliyat, faollik, zamonaviy pedagogik texnologiyalar

Dodoyev Bago Boturovich

Psychologist of school 49, Nurota district, Navoi region

Annotation: Social pedagogical work with school-aged children is fundamentally different from social pedagogical work in preschool institutions. This activity depends on the continuous development and education of students. It is impossible to reveal all aspects of social pedagogical activity at school in one chapter, so we will try to reveal the most important situations. Key words: activity, activity, modern pedagogical technologies.

KIRISH

Respublikamizda maktab o'quvchilari bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish rivojlanmoqda. U qisman moziy tajribasi, qisman zamonaviy pedagogik tibbiy, psixologik, yuridik faoliyat turlariga tayanib ish olib bormoqda. So'nggi yillarda pedagogik jamoalar ham paydo bo'lib, ularda maktab nafat ta'lif-tarbiya masalalarini balki o'quvchining boshqa bir qator ijtimoiy muammolarini ham yechmoqda

Davlatimizdagi o'zgarishlar mavjud ta'lif tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Umumta'lif maktabi o'zining bu o'quv, tarbiya va ijtimoiy funksiyalarini ko'rib chiqib birinchi o'ringa quyidagi ijtimoiy funksiyalarni qo'yishi kerak edi:

Ta'lif to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarish lozim edi, biroq ta'lif bolalar va o'smirlar manfaati asosida tashkil qilinmoqda.

1. Maktabda tarbiya ishini ta'lif bilan teng yuritish.

2. Maktab faoliyatini qayta yo'naltirish.

3. Maktab ishini, bolalar faolligini oshirish, turli bolalar klublari tuzishga asoslash.

Maktabning asosiy ijtimoiy vazifasi bolaning ta'lrim-tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish hisoblanadi. Zamonaviy maktab sharoitlarida bolalarning ijtimoiy pedagogik himoyasi quyidagicha amalga oshmoqda:

Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari uchun o'qituvchi tomonidan talabalarga yo'riqnomalar beriladi;

Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari, kam ta'minlangan oilalar farzandlariga moddiy yordam, bepul ovqatlanish tashkil qilishadi. Sinf rahbarlarning bolaning oiladagi holatini o'rganishadi, qiyin bolalar bilan alohida shug'ullanishadi.

Maktabda psixologlar bola qobiliyatları va qiziqishlarini o'rganishadi. Psixoterapevt va psixologlar ota-onalar va bolalarga maslahat berishadi va yordam berishadi.

Maktabda mavjud bo'lgan sog'lijni saqlash xizmati maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rnikdan o'tkazishadi, jismoniy tarbiya guruhlari tuzishadi, kuchsiz bolalarga maxsus ovqatlanish tashkil qilishadi, karantin sinflarini nazorat qilishadi.

Maktabda ijtimoiy ishga mакtab direktori yordamchilaridan biri rahbarlik qiladi. Tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari maktabning maktabgacha tarbiya muassasalari, turli hukumat tashkilotlari bilan aloqasiga katta e'tibor qaratadi.

Ota-onalar qo'mitasi ham o'z o'rniда tarbiyasi og'ir bilan ishslashga yordam beradi. Turli davlatlarda ijtimoiy pedagog ishiga ikki yondashuv mavjud: u maktab bilan hamkorlik qiladi yoki u maktabning shtatli hodimi hisoblanadi.

Maktab bilan hamkorlik qila turib ijtimoiy pedagog tez-tez maktabga borib turadi. Ota-onalar va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarining yaxshilanishiga yordam beradi, dars qoldirish sabablarini aniqlaydi. U bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lgan oilalarni, jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalarni aniqlaydi. Bola yoki oilaga yordam berish maqsadida bolaning uzoq davom etgan kasalligi sabablarini surishtiradi, bola o'qishda ortda qolmasligi uchun u bilan uyda va kasalxonada alohida shug'ullanadi. Bola tarbiyasidagi muammolarni xal qilish uchun huquqshunos, shifokor, militsiya hodimlari xizmatidan foydalanadi.

Ko'pgina G'arbiy Yevropa davlatlarida ijtimoiy pedagog maktabning shtatli xodimi hisoblanadi. U ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarni aniqlaydi. Bu bolalar maktab kursini o'zlashtirishga qobiliyati yetmaydigan bolalardir. Bu bolalar maktab yoki oilada ruhiy tushkunlikni boshdan kechirishadi. Odadta bu bolalar voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya ro'yxatida turishadi. Ba'zan bolalar va ularning atrofidagilar bilan munosabatlarini oydinlashtirish yetarli yordam beradi.

Ijtimoiy pedagog o'quvchining maktabdan tashqari vaqtini tashkillashtirib, o'z tarbiyaviy ishini olib borishida ota-onalar bilan hamkorlik qiladi. Hamkorlik yuzasidan seksiya, klublar, har xil mehnat, turistik bo'limmalar tashkil qiladi. Ijtimoiy pedagog pedagogik jamoaning tarbiyasi og'ir bolalar bilan ish olib borishini tartibga soladi.

U maktab pedagogik jamoasiga doimiy tarzda sinfdagi psixologik muhit to'g'risida axborot beradi. Aynan shu holat maktabda ijtimoiy ish olib borishning rejasini tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy pedagog mактабдан haydalgan bolalarga alohida e'tibor qaratishi kerak. U ularni boshqa mактабга joylashtirishga, yangi jamoaga ko'nikishlariga yordam ko'rsatadi. Ijtimoiy pedagog dars soatlari vaqtida noqonuniy ishlab yurgan bolalarni aniqlaydi, ularning o'qish masalasini hal qiladi. U ko'p bolali oilalarning barcha imtiyozlardan foydalanishlari, bolalarning rehabilitatsion markazlarga qatnashlarini nazorat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari va sinf rahbarlari tumandagi oila va o'quvchilarni o'rganib chiqishadi. ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarga e'tibor berishadi, tarbiyasi og'ir bolalarni tarbiyalashda oilalarga yordam berishadi.

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari o'z faoliyatida to'garak, seksiya, klublarni tashkil qilish, o'tituvchining o'quvchilar bilan individual ishlashini, yashash joyida bolalar bilan konsultatsiya o'tkazish, alohida pedagogik e'tiborga muhtoj bolalar bilan ish olib borishni nazorat qiladi.

Alohida fanlardan dars beruvchi o'qituvchilar bolalarning qiziqishlarini o'rganib chiqib, ularni turli to'garak va seksiyalarga jalb qilishadi. Maktabda turli tadbirdar o'tkazishadi. Bu tadbirdarni o'tkazishda ota-onalar va sobiq o'quvchilar yordamidan foydalanishadi, mактабга mashhur kishilarni chaqirishadi.

Maktab yoshidagi bolalarning asosiy ijtimoiylashtiruvchi omili bolalar submadaniyatini shakllantiruvchi tengqurlar jamoasidir. Ijtimoiy pedagog bu hodisalarning funksiyalarini bilishi, ularning o'quvchilarning shaxsiy hislatlari va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishdagi o'rinnarini ko'ra olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Petrovskiy A.B. tahriri ostida: "Psixologiya". Toshkent, "O'qituvchi", 1979
2. Platonov K.K. "Qiziqarli psixologiya". Toshkent, "O'qituvchi", 1971.
3. Safoyev N., Gaffarov B. "Muomala sirlari". Toshkent, "Navro'z", 1992
4. Xoxlova L.P. "Talabalar uchun psixologiyadan topshiriqlar". Toshkent, "O'qituvchi", 1977.